



BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI
2021



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
BUXORO INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

"TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROsi: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O'ZLIK"

"НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ"

"TÜRKİSTAN CEDİTÇİLERİNİN MİRASI: TARİHSEL DENEYİM VE
ULUSAL KİMLİK"

"LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS: HISTORICAL
EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY"

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

Buxoro shahri, 2024-yil 4-5-oktabr



BUXORO-2024

"TURKISTON TARAQQIY PARVARLARI MEROsi: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O'ZLIK" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN DASTURIY QO'MITA TARKIBI

- | | |
|----------------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. G.R. Akramova | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.b, rais muovini; |
| 3. H.T. Artikova | – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, a'zo;
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti "Milliy tarbiya mutafakkirlar, |
| 4. R.G. Safarova | – hamda jadidlarning pedagogik ta'limotlari" ilmiy tadqiqot bo'limi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor, a'zo |
| 5. D.I. Ro'ziyeva | – Buxoro Innovatsiyalar universiteti rektori, professor, a'zo |
| 6. U.A. Yesnazarova | – Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti professori, a'zo |
| 7. D.Yu. Nematov | – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 8. E.M. Muxtorov | – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, a'zo; |
| 9. N.I. Davronov | – O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i, a'zo; |
| 10. N. J. Yadgarov | – Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, a'zo; |
| 11. A.Z. Sharipov | – Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, a'zo; |
| 12. X.X. Raxmatova | – Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.d.(DSc), a'zo. |
| 13. Z.I. Narziyev | – Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.f.d, a'zo. |
| 14. X.M. Tojiboyeva | Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinosi, pedagogika fanlari doktori, professor, a'zo
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti "Milliy tarbiya mutafakkirlar, |
| 15. L.M. Qoraxonova | – hamda jadidlarning pedagogik ta'limotlari" ilmiy tadqiqot bo'limi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), a'zo |

4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиши тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
5. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.
6. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
7. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
8. Abdullayeva, X. Y. (2022). O 'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(3), 349-351.

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA EKOLOGIK VA TIBBIY MADANIYAT MASALALARI

Mardonova Saodat Muzaffarovna
BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrasi óqituvchisi,dotsent
saodatmuzaffarovna021@gmail.com

Annotatsiya. ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlari mazmunida ekologik tarbiya va tibbiy madaniyat masalalarining yoritilishi, yosh avlodning sog'lom kamol topishida hamda jamiyat taraqqiyotida ekologiyaga bo'lgan e'tiborning muhimligi, o'quvchilarning shaxs sifatlarini rivojlantirishda tibbiy madaniyat etiketi muammolari, ularni hal qilishga oid tavsiyalar, sog'lom muhit, tabiat muhofazasiga e'tibor, an'anaviy tibbiyot, to'g'ri ovqatlanish va gigiyenaga rioya qilishda pedagogik qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, tibbiy madaniyat, yosh avlod, jamiyat taraqqiyoti, shaxs sifatlari, tibbiy madaniyat etiketi, sog'lom muhit, tabiat muhofazasi, an'anaviy tibbiyot, to'g'ri ovqatlanish, gigiyena.

Аннотация. в данной статье рассматриваются вопросы экологического воспитания и медицинской культуры в контексте работ Абдуллы авлани, важность внимания к экологии в здоровом взрослении подрастающего поколения и развитии общества, проблемы этикета медицинской культуры в развитии личностных качеств учащихся, рекомендации по их решению, здоровая окружающая среда, внимание к охране природы, педагогические взгляды на соблюдение традиционной медицины, правильного питания и гигиены. описано.

Ключевые слова: экологическое воспитание, медицинская культура, подрастающее поколение, развитие общества, качества личности, этикет медицинской культуры, здоровая окружающая среда, охрана природы, народная медицина, правильное питание, гигиена.

Annotation. in this article, the content of the works of Abdullah Avlani highlights issues of environmental education and medical culture, the importance of attention to ecology in the healthy maturation of the younger generation and in the development of society, problems of medical culture etiquette in the development of personality qualities of students, recommendations for their solution, healthy environment, attention to nature protection,

Keywords: environmental education, medical culture, younger generation, Community Development, personality qualities, medical culture label, Healthy Environment, Nature Conservation, traditional medicine, proper nutrition, hygiene.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholi salomatligini tiklash, ularning tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Xalqimiz tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'nggi usul va rusumdagagi tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishni istaydi. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish – taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir. Tizimni mutlaqo o'zgartirish – davr talabi"dir . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-noyabrdagi PF-4513-son "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamenti yanada kengaytirish to'g'risida", 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ 4038-son "O'zbekiston

Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori mavzumizning dolzarbligini belgilab beradi.

Ma'lumki, ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani ekologik madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Oliy ta'lim jarayonida talabalarda ekologik madaniyat kompetentligini rivojlantirib borishga erishish, ularda axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan uzlusiz ta'limva tarbiya tizimida tabiatshunoslik, biologiya, geografiya, salomatlik kabi fanlarning o'qitilishi ekologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi. O'quv jarayonini ekologik bilimlar berish orqali integratsiya qilishda o'qituvchilarining turli manba va axborotlardan foydalanishi, ta'lim oluvchilarining fanga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgartirishni hamda o'zini shaxs sifatida muvaffaqiyatli rivojlantirishni ta'minlaydi. Fanni o'rganishda ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda EKO-tizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini qaror toptirish, ekologik tarbiya va tibbiy madaniyat ko'nikmasini mustahkam egallashlari uchun zarurdir. Ushbu jarayonni A.Avloniy asarlari mazmunidan foydalangan holda integrativ amalga oshirish bilimlarni tez va oson o'zlashtirish uchun yaxshi texnologiya hisoblanadi.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, olimi, shoiri va yangicha maktab tizimiga asos solgan pedagog Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiya to'g'risida, mukammal inson haqida, ma'naviyat va ma'rifat haqida ko'p fikr va mulohazalar bildiradi. Shuningdek hayotda amal qilishga harakat qiladi. U Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'yadi.

Abdulla Avloniy ijodining bosh masalasi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Ana shunday inson haqidagi g'oyalar uning faqat darsliklarida emas, balki uning butun ijodidan, ayniqsa, "Sadoiy Turkiston" gazetasida e'lon qilingan "Izzatli Insonlar", "G'alot", "Diqqatman" kabi maqolalarida yaqqol aks etgan.

Abdulla Avloniy o'n besh yoshidan she'rlar yoza boshlaydi. Natijada ko'plab she'rlar muallifiga aylanadi. Darvoqe A.Avloniyning "Turkiy

guliston yohud ahloq” asari XX asr boshlarida ijtimoiy pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o’rin egallab qolmasdan, fikrmizcha bugungi kunda ham yoshlarga ahloqiy-jinsiy, ma’naviy-madaniy va ekologik-gigiyenik tarbiya berishda nihoyatda muhim dasturiyal bo’lib xizmat qilmoqda. Uning mazkur asarida tarbiya va ahloq, xulq masalalari birinchi marotaba XX asrning talabi va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

A.Avloniy inson huquqlarini yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti davrida yashovchi aksari odamlar orasida ma’naviy ehtiyojlariga asosan odamlar asosida ma’naviy ehtiyojlariga nisbatan biologik ehtiyojlarni ustun qo’yuvchi, moddiy boylikka intiluvchi insonlar soni ko’payib bormoqda. Ammo, hayotda faqat moddiy boylik toplashga xirs qo'yish, odamlarni o'zlarining tub mohiyatidan uzoqlashtiradi, u halokat yo'lidir. Bu haqda A.Avloniy “Ahloq ilmini o'qib, bilub, amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi Haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlar qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub tuzatmoqqa sa'y va qo'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir deydi”.

Madomoki vaziyat shunday ekan biz ustozlar uchun tarbiya masalasi A.Avloniy ta’kidlaganidek, “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, tanin pok tutmoq, yosh vaqtidan maslakni tuzatmoq, yaxshi hulqlarni o’rgatmoq, yomon hulqlardan saqlab o’stirmoqdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasalga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi hulq” degan davoni ichidan, “poklik”degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”²⁶⁰.

Bunday deyishimizning boisi uchinchi ming yillikning eng keskin, o’ta dolzarb, sivilizatsiyaning buguni va kelajagini hal qiluvchi muammolardan hisoblanmish umumbashariy ekologik muammolar va OIV infeksiyasining global epidemiysi xalqimizning ekologik va tibbiy madaniyati A.Avloniy orzu qilganidek darajada emasligidan dalolat beradi. Binobarin, ekologik muammolarning oqilona yechimini topish, salbiy oqibatlarining oldini olish uchun aholi barcha qatlamlarining ekologik savodxonligini oshirish,

ekologik madaniyatini A.Avloniyning boy merosidan foydalanib yuksaltirish davr talabi.

A.Avloniy millatning kelajagi tarbiyaga bog'liqligi, shu bois, tarbiya jamiyatda hayot va mamot masalasi hisoblanganligini vujudi ila his etgan zabardast murabbiylarimizdan buyuk ma'rifatparvarning bu so'zлari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lган bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

Abdulla Avloniyning asarlarida ekologik va tibbiy madaniyat masalalari turli jihatdan yoritilgan bo'lib, u o'z davri uchun ilg'or fikrlarni ilgari surgan va inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush tarziga e'tibor qaratgan. Uning asosiy fikrlar quyidagilardan iborat:(1-rasmga qarang).



1-rasm. A.Avloniy asarlarida ekologik va tibbiy madaniyatga erishishda ahamiyatli jihatlar

Adib asarlarida ushbu jihatlarga asosiy e'tiborning qaratilishi inson shaxsiy sifatlarining mazmun – mohiyatini quyidagicha izohlanilgan.

Sog'lomlik va toza muhit: Avlo'niy inson salomatligi uchun toza havo, suv va atrof-muhitning ahamiyatini ta'kidlaydi. U o'z asarlarida tabiat bilan inson o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga harakat qiladi.


To'g'ri ovqatlanish va gigiyyena: Avlo'niy ovqat mahsulotlarining sifatiga va to'g'ri ovqatlanishga katta e'tibor qaratadi. U insonlarni shaxsiy gigiyyena qoidalariiga rioya qilishga undaydi.

An'anaviy tibbiyot: Avlo'niy an'anaviy tibbiyot usullarini tushuntirish va ularning samaradorligini ta'kidlashga harakat qiladi. U inson salomatligini saqlash uchun tabiiy vositalardan foydalanishga chaqiradi.

Tabiatni muhofaza qilish: Avlo'niy tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklarini oqilona foydalanishga chaqiradi. U o'z asarlarida tabiatga g'amxo'rlik qilishning ahamiyatini tushuntiradi.

Абдулла Авлонийнинг "Туркистон тарихи", "Туркистон мусулмонлари маданий-маърифий жамияти", "Мехроб" каби асарларида экологик тарбияга муҳим эътибор қаратилиган. У о'з даври uchun ilg'or fikrlarni ilgari surgan va insonning tabiat bilan uyg'un hayot kechirishi va atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyatini tushuntirgan.

Adabiyotlar bilan tanishar ekanmiz, Avloniy asarlaridagi ekologik tarbiya masalalarining mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi (2-rasmga qarang).



2-пачм. Avloniy asarlaridagi ekologik tarbiya masalalarining mazmuni

Avloniy asarlaridagi tibbiy madaniyat masalalarining mazmunida quyidagi mazmun o'z ifodasini topadi:

Ovqatlanish: Avloniy ovqat mahsulotlarining sifatiga va to'g'ri ovqatlanishning ahamiyatiga katta e'tibor qaratadi. U ovqatni modarada iste'mol qilish va sog'lom ovqat mahsulotlarini tanlash zarurligini ta'kidlaydi.

Jismoniy mashqlar: Avloniy jismoniy mashqlar qilishning inson salomatligi uchun ahamiyatini ta'kidlaydi va o'z asarlarida insonlarni sport bilan shug'ullanishga undaydi.

Uyqu: Avloniy insonning yetarli va sog'lom uyqu olishining muhimligini ta'kidlab, uyquning inson tanasi va ruhini dam oldirishdagi ahamiyatini tushuntiradi.

Shaxsiy gigiyena: Avloniy shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishning muhimligini ta'kidlaydi va insonlarni tozalikni saqlashga chaqiradi.

Atrof-muhit tozaligi: Avloniy asarlarida atrof-muhitning tozaligini saqlash va ifloslikni oldini olishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Tabiiy dorivor o'simliklar: Avloniy o'z asarlarida an'anaviy tibbiyot usullarini tushuntirishga harakat qiladi. U insonlarni tabiiy dorivor o'simliklardan foydalanishga undaydi.

Kasalliklarni oldini olish: Avloniy kasalliklarni oldini olishning ahamiyatini tushuntirishga harakat qiladi. U insonlarni o'z salomatligiga e'tibor qaratishga va kasalliklarni oldini olish uchun zarur choralarni ko'rishga chaqiradi.

Tanani bilish: Avloniy inson tanasini tushunishning ahamiyatini ta'kidlaydi va insonlarni o'z tanasi haqida ko'proq bilimga ega bo'lishga ndaydi.

Kasallik belgilari: Avloniy kasallik belgilari haqida ma'lumot beradi va insonlarga o'z salomatligiga e'tiborli bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Avloniy asarlarida tibbiy madaniyatning muhim ahamiyatini tushuntirish orqali o'z xalqining sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Uning fikrlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonamiz yoshlarining shaxsiy sifatlari, muvaffaqiyatli yashashlari uchun hayotiy ko'nikmalarga egaliklarini tarkib toptirishda o'ziga xos nazariy bilimlar berishga asoslanadi.

Demak, Avloniyning asarlari o'zbek xalqining an'anaviy tibbiyotga bo'lgan munosabatini, inson salomatligini saqlash va sog'lom turmush tarziga e'tibor qaratishning muhimligini, yoshlarning salomatlik va

tibbiyotga bo'lgan ijobiy munosabatini ongli tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Avloniyning asarlari orqali o'zbek xalqi uchun ekologik tar-biyaning muhim ahamiyatini tushunish mumkin. Uning fikrlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda va bizning zamonamizda ham muhim ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning asarlarida ekologik va tibbiy madaniyat masalalari o'z davri uchun ilg'or fikrlarni ilgari surgan va inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofaza qilish vasog'lom turmush tarziga e'tibor qaratgan. Uning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda va bizning zamonamizda ham dolzarb hisoblanadi. Uning asarlari o'zbek xalqining an'anaviy tibbiyotga bo'lgan munosabati, tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan qiziqishini o'z asarlarida yoritib beradi. Avlo'niyning asarlari o'zbek xalqining salomatlik va muhitga bo'lgan munosabatini tushunish uchun muhim manba hisoblanadi ekologik va tibbiy madaniyat masalalari o'z davri uchun ilg'or fikrlarni ilgari surgan va inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush tarziga e'tibor qaratgan. Uning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda va bizning zamonamizda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud ahloq», T., «O'qituvchi», 1992 .
2. <https://www.ziyouz.uz> /ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abdulla-avlonyi-1878-1934/ Begali Qosimov.
- 3.Шоумаров Р. Оила психологияси.-Т.: “Шарқ”. 2001.
- 4.Фозиев Э. Муомала психология.-Т., “Шарқ”. 2007.

TALABALARGA JADIDCHILIK HARAKATINING JAMIYAT TARQQIYOTIDAGI MILLIY VA SIYOSIY AHAMIYATINI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
a.t.teshayev@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati, jamiyat tarqqiyotidagi milliy va siyosiy o'rni, ta'limni rivojlantirish, xalqni savodli qilish g'oyalari asosida ma'rifatparvar jadidlarning ilgari surgan dunyoviy qarashlari mazmun-mohiyati, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadidlarning milliy mafkuraviy harakatlari,

Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г. У. Арабо-мусульманская культура как один из базисов идентичности джадидской парадигмы.....	902
Рахмонова М. Бухоро жадидчилик ҳаракатида Фитратнинг ўрни	907
Idiyeva G. I. Ta'lim rivojidagi 21-asr ko'nikmalarida kreativlik	919
Sohibova N. S. Sadriddin Ayniyning jadidchilik faoliyati. (Sadriddin Ayniyning 146 yilligiga bag'ishlanadi).....	924
Alimova M. A. Abdulla Qodiriy badiiy merosining jadidchilikdagi o'rni.....	928
Baxronova Z. R. Jadidlar davrida ingliz tilini o'qitish metodikasi.....	932
Mardonova S.M. Abdulla Avloniy asarlarida ekologik va tibbiy madaniyat masalalari.....	946
Teshayev A.T. Talabalarga jadidchilik harakatining jamiyat tarqqiyotidagi milliy va siyosiy ahamiyatini o'rgatishning nazariy asoslari.....	953
Xakimova N.S. Ta'limning xalqarolashuvi jarayonlarida a.avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari va milliy pedagogikani rivojlantirishdagi roli.....	962
Xaydarova L.X. Jadidlar ilmiy merosida odob -axloq masalasining o'rni.....	970
Hasanova Sh. F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga yo'naltirishda abdulla avloniy asarlaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati.....	980
Рахмонова В. К. Абдулла Авлони - гений узбекского просветительства.....	986

QAYDLAR UCHUN

“TURKISTON TARAQQIY PARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK”

**“НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ”**

**“TÜRKİSTAN CEDİTÇİLERİNİN MİRASI: TARİHSEL DENEYİM VE
ULUSAL KİMLİK”**

**“LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS: HISTORICAL
EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY”**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

Buxoro shahri, 2024-yil 4-5-oktabr

<i>Muharrir:</i>	<i>H.Qahhorov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>O.Jabborov</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>M.Kuziyeva</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>X.Axrarov</i>

Nashriyot litsenziyasi № 040075. 23.09.2022. Orginal maketidan bosishga ruxsat etildi: 30.09.2024 Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Palatino Linotype” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog’ozi. Bosma tobog’i 60. Adadi 100. Buyurtma № 997



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy.